



Samoviy otlar yurti

Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tarix fakulteti 4-kurs talabasi

Otarbaeva Malika Ongarbaevna

Annotasiya: *Ushbu maqolada o'lkamizdagi qadimgi davlatlardan biri bo'lgan, o'zining samoviy otlari bilan mashhur bo'lgan Dovon davlati haqida, uning joylashuvi, Xitoy manbalarida davlatga oid ma'lumotlar, yurtimiz tarixchilarining Dovon davlati bo'yicha olib borgan ilmiy izlanishlari haqida batafsil to'xtalib o'tiladi.*

Kalit so'zlar : *Sima Cyan, Fragonik, Buyuk ipak yo'li, Erchi, Yuchen, beda, uzum, samoviy otlar, Oqsoqollar kengashi, M.Degin, Magua, Polona, Boxon, Ninyuan.*

Tarixga nazar tashlasak , mil. avv. I ming yillikiing so'nggi choragida O'rta Osiyoning shimoliy va shimoli-sharqiy hududlarida ham qadimgi (antik) davlatlar rivojlanadi. Bunday davlatlardan biri mil. avv. II-l asrlarga oid Xitoy manbalari dehqonchilik va chorvachilik, ayniqsa yilqichilik keng rivojlangan Dovon (Da-vun. Farg'ona) davlati haqida ma'lumotlar beradi.

O'rta Osiyoning sharqida, Sirdaryoning yuqori havzasida joylashgan qadimgi Farg'ona antik davr tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan edi. Farg'ona to'g'risida yunon-rim mualliflari ma'lumotlar bermaydilar. Bu davlat haqidagi yozma ma'lumotlar asosan Xitoy manbalarida Chjan Syan ma'lumotlarida, Sima Syanning "Tarixiy xotiralar", Ban Guning "Birinchi xan sulolasi tarixi" asarlarida beriladi. Bu manbalarda ushbu davlat «Dayuan» yoki Da-van» nomi ostida eslatiladi. Farg'ona so'zi Sug'd manbalarida "Fragonik" shaklida yozilib "tog'lar orasidagi vodiy, atrofi berk soylik" ma'nosini beradi. Xitoy manbalaridagi Dayyuan ham "tog'lar orasidagi vodiy" ma'nosini beradi.



Dovon davlati tarixi bo'yicha uzoq yillardan buyon tadqiqot ishlari olib borilib, so'nggi yillarda o'zbek olimlaridan A.Asqarov, A.Xo'jayev, B.Matboboyev, A.Anorboyev, S.Qudratov, B.Abulg'oziyeva, B.Abdullayev, Abduholiq Abdurasul o'g'li kabilar arxeologik ma'lumotlarni yozma manbalar bilan qiyosiy o'rganish asosida samarali ishlar olib borayotgan bo'lishlariga qaramay, bu yo'nalishda hali ko'pgina masalalar o'z yechimini topmagan. Dovon davlati shaharlarining aniq joylashuvi, davlat tizimi va boshqaruvi, davlatning chegaralari, qo'shni davlatlar bilan munosabatlar, mahalliy madaniyatning qo'shni madaniyatlar bilan munosabatlari masalalari shular jumlasidandir. Qadimgi Farg'ona aholisi bronza davridayoq buloq suvlari birlashuvidan paydo bo'lgan Qoradaryo tarmoqlari havzalarida o'ziga xos sug'orma dehqonchilik madaniyatini yaratadilar. Ilk temir va antik davrga kelib Farg'onada mahalliy madaniyatlar an'analari asosida taraqqiy etayotgan qadimgi dehqonchilik madaniyatlari butun vodiyni qamrab oladi va aholining o'troq hayot tarzi jamiyat iqtisodiy asosini tashkil etadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mil.avv. III asrdan boshlab butun Farg'ona vodiysida shaharsozlik madaniyati keng yoyiladi. Aynan mana shu davrda Farg'ona vodiysi orqali o'tgan Buyuk ipak yo'li tarmoqlari bo'ylab Axsikent, Marhamat, Qubo, Marg'ilon, Bob (Pop) kabi ko'hna shaharlar paydo bo'ladi. Shuning uchun ham mil. avv. II asrga oid Xitoy manbalari Farg'onada 70 ta katta-kichik shaharlar borligi haqida ma'lumot beradi. [1; 261-262]

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, Dovon davlati ma'lum siyosiy uyushmani tashkil etgan bo'lib, davlatni boshqaruvchi hukmdor manbalarda "van" (podsho) unvoni bilan isb yuritgani ta'kidlanadi. Davlat hukmdori mamlakatning siyosiy va diniy hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan oqsoqollar kengashiga tayanib ish ko'rgan. Oqsoqollar urush va sulh tuzish masalalarini hal etishda ishtirok etganlar, ba'zan ular hukmdoming taqdirini hal etganlar.

Manbalar Dovon davlatining poytaxtlari - bosh shahar Ershi va ikkinchi shahar Yuchen (davlatning sharqida) haqida ma'lumotlar beradi. Tadqiqotchilar bosh



shaharni Marhamat (Andijon vil.) va ikkinchi shaharni Shufabashot (O‘zgand vohasi Qirg‘.) o‘rnida bo‘lgan deb hisoblaydilar. Farg‘ona vohasi hududlarida ko‘chib yurgan chorvador va ko‘chmanchi qabilalar Dovon tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lganlar. Bu qabilalar uchun Farg‘ona madaniy va hunarmandchilik markazi hisoblangan.

Mil. avv. II asrdan boshlab Qashg‘ardan Dovonga shimoliy yo‘ldan karvon yo‘li harakati boshlanadi. Bu yo‘ldan ipak va boshqa mahsulotlarning xalqaro tranzit savdosi amalga osha boshlaydi. Bu paytga kelib Dovon aholisi ko‘paya boshlaydi va ko‘plab mustahkamlangan aholi manzilgohlari paydo bo‘ladi. Savdo yo‘lida Dovon muhim ahamiyatga ega bo‘la boradi. Tadqiqotchilar fikricha, Yassa va Qoradaryo vohalarida ko‘pgina qal‘alar savdo yo‘lini qo‘riqlash maqsadida barpo etiladi Mil. avv. 125-yilda Dovonga kelgan mashhur Xitoy sayohatchisi Chjan Syan Dovonning qishloq xo‘jaligi haqida ma‘lumot berib, shunday yozadi: “O‘troq aholi yer haydaydi, g‘alla va sholi ekadi, ularda musallas navli uzum, juda ko‘plab yaxshi otlar bor”. Bu ma‘lumot qadimgi Farg‘onada dehqonchilik madaniyati yuqori darajada rivojlanganligin isbotlaydi. Xitoyliklarni ayniqsa, o‘zlari uchun notanish bo‘lgan beda va uzum hayratga solgan. Manbada yana shunday ma‘lumot bor:”Xitoy elchisi urug‘ keltirdi, shunda osmon farzandi (Xitoy imperatori) unumdor yerga beda va uzum ekdi”. [2;89-90].

Xitoy manbalari, shuningdek, qadimgi Farg‘ona chorvachiligining o‘ziga xos tomoni bo‘lgan yilqichilikning yuqori darajada rivojlanganligi haqida ham ma‘lumotlar beradi. Dovon o‘lkasi qadimgi (antik) davrda mashhur zotdor otlari bilan shuhrat qozongan edi. Manbalardan ma‘lum bo‘lishicha, ularni yetishtirish bilan o‘troq aholi shug‘ullangan. “Dovonda yaxshi otlar bo‘lib ular Ershi shaharidadir, otlarni yashiradilar va Xan elchisiga berishga rozi bo‘lmaydi”. Dovonning mashhur “samoviy otlari” tasvirlari tushirilgan qoyatosh suratlari bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan.



Xususan, O‘shdan 8 km uzoqlikdagi Ayrimchatovdagi qoya adirlarda 30 ta chiroyli zotdor otlaming tasvirlari bor. Xuddi shunga o‘xshash tasvirlar Marhamat yaqinidagi Aravon qoyasidan, Navqat Vohasi va Obishirsoydan ham topilgan. Bu tasvirlar Dovon o‘zining samoviy otlari bilan qadimdan mashhur bo‘lganligini tasdiqlabgina qolmay, farg‘onaliklarning yuksak tasviriy san‘at sohiblari bo‘lganligidan ham dalolat beradi.

Manbalarning guvohlik berishicha, qo‘shni davlatlar, xususan Xitoy imperatorlari Dovon otlarini nihoyatda qadrlaganlar. Otlar va Dovonning serunum yerlari uchun mil. avv. II asrning oxirlarida Xitoy va Dovon o‘rtasida harbiy to‘qnashuvlar ham bo‘lib o‘tgan. Bu to‘qnashuvlarda dovonliklar o‘z mustaqilliklarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lganlar.

Milodning I-II asrlarga kelib qadimgi Farg‘ona aholisining o‘troq dehqonchilik madaniyati yuqori darajaga ko‘tariladi. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Farg‘ona vodiysida bu davrga oid ko‘p sonli aholi manzilgohlari, qal‘alar, qo‘rg‘onlar, ko‘hna shaharlar xarobalari aniqlangan. Aholi manzilgohlarini vodiyning turli hududlarida keng yoyilishi sug‘orma dehqonchilik va irrigatsiya ishlarining yuqori darajada rivojlanishi natijasi edi. Davlatning siyosiy va madaniy rivojlanishida hunarmandchilik markazlari bo‘lgan qadimgi shaharlar ayniqsa katta ahamiyalga ega bo‘ldi.

Dovondagi ijtimoiy-siyosiy hayotning yana bir muhim jihati - bu ayollarning jamiyatda tutgan mavqeyining yuksakligidir. Chjan Syanning e‘tiroficha, bu yerning erkaklari ayollarga alohida hurmat ko‘rsatganlar. Boshqacha qilib aytganda, xotin-qizlarning har qanday topshirig‘i erlar tomonidan bajarilishi shart hisoblangan. Davlat hukmdori mamlakat hayotiga oid har qanday ichki va tashqi masalalarni hal etishda Oqsoqollar kengashiga, uning maslahatlari va yo‘l-yo‘riqlariga suyangan. Ayniqsa, urush va tinchlik, elchilik aloqalari masalasida Oqsoqollardan iborat Oliy kengash alohida vakolatlarga ega bo‘lgan. Hukmdor buni e‘tirof etishga majbur bo‘lgan. [3;67]



Dovonning Farg'ona ekanligi 1756-1758 yillardayoq frantsuz xitoyshunusi M.Degin tamonidan ilgari surilgan bo'lib, bugun aksariyat olimlar tomonidan e'tirof etiladi.[4].

Gerodot tilga olingan parikanlar E. Xersfeltd fikricha Farg'onada yashagan. Keyinchalik K.V.Trever, A.N.Bernshtam va Yu.A.Zadneprovskiy tomanidan qo'llab-quvvatlandi. Farg'ona qadimda Parkona, Parg'ona tarzda nomlangan.

Mil.avv.II-I asrlarga oid Xitoy manbalarida Dovon to'g'risida ma'lumotlar uchradi. Ularda yozilishicha, davlatni podsho ikki yordamchisi bilan boshqargan. "Oqsoqollar kengashi" katta o'rin olgan. Mamlakat taqdirida eng muxim masalalarni ayniqsa, urush e'lon qilish, tinchlik sulhlarini olib borish masalalarini, zaruriyat tug'ilganda hatto podshohning ham taqdirini hal qilgan.

So'nggi yillarda Dovon davlati tarixi bo'yicha samarali ish olib borayotgan B.X.Matboboyevning yozishicha, ichki tartibni saqlash va mamlakatni tashqi dushmandan himoya qilish uchun Dovon davlatida asosan piyoda askarlar va otliq suvoriylardan iborat bo'lgan 60 ming kishilik qo'shin mavjud edi. Manbalarning ma'lumot berishicha, dovonliklar "otda ketayotib o'q otishda mohir bo'lganlar". Jangchilarning qurollari o'q-yoy va nayzadan iborat bo'lgan. Dovon qo'shinlari ochiq jangga kirishga ham, uzoq muddatli mudofaa urushlari olib borishga ham qodir bo'lgan.

Ma'lumotlarda Dovon yuqori darajada rivojlangan qishloq xo'jaligiga ega bo'lgan. Katta-katta uzumzorlari bo'lgan, bir necha o'n yil saqlanadigan vino tayyorlagan. Mu-su (beda) deb nomlangan o'simlik ekishgan. Farg'ona otlari mashhur bo'lgan. Xitoyliklar ayniqsa, Imperator Vu-Du Farg'onaning mana shu "samoviy" otlariga ega bo'lishni orzu qilganlar. Ular mana shu otlar bilan "Mangu hayot yurti" ga etish mumkin deb o'ylashgan. Shu sababli, bu otlarni muqaddas deb bilgan. Xitoy imperatorlari shunday otlarga ega deb hisoblangan Dovonni bo'yisindirishga uringan.

104- yilgi Xitoyliklar 60.000 kishilik qo'shin bilan Farg'ona ustiga birinchi bor



yurish qilgan. Ular mamlakat sharqidagi Yuchen shahrini bosib olgan bo'lsalarda, lekin poytaxt yo'lida qattiq qarshilikka uchrab, orqaga chekinishga majbur bo'ladi. Keyinchalik, 99 yil xitoyliklar yana bir marta 60.000 kishilik qo'shin bilan Farg'onaga yurish qiladi. Ular bu safar poytaxt Yuan-Chingni qamal qiladi. Farg'onaliklar o'zining shohi Magua boshchiligida mardonavor jang qilishadi. Biroq, jang natijasi sabab, Magua o'ldiriladi va ikki o'rtada sulh tuziladi. [5;165-167].

Chamasi, milodiy I-II asrlarda Dovon Xitoyga siyosiy jihatdan qaram bo'lgan. Dovon nomi milodning III asrda, aniqrog'i 280-289 yillar Xitoy o'z elchisini qadimgi Farg'ona davlati podshohi huzuriga yuborgani munosabati bilan ilk bor tilga olinadi. Dovon davlati milodiy IV-V asrlarda ko'chmanchi qabilalar yurishi natijada barkam topadi. Keyinroq, 436-yili Xitoy imperatori Vey elchisi Fun Van Polonaga o'tmishdagi Dovonga bordi deyilgan. Demak, bu davrda Dovon Polona deb yuritila boshlagan. VI-VII asrlarda Boxon deb, VII-VIII asrlarda Ninyuan nomi bilan atalgan.

Yakunlab shuni aytish kerakki, Dovon davlati o'z davrining qudratli yurti bo'lgan. O'zining ayniqsa Samoviy otlari bilan yo'qarida aytganimizdek hattoki Xitoy imperatorlarini qiziqtirgan. Ularga ega bo'lish uchun, Dovonga yurish qilganligini ham ko'rishimiz mumkun. Shunga qaramasdan, Dovon o'zining yuksak rivojlanishini davom etgan. Lekin, oxirida Xitoyga qaram davlatga aylangan.

Foydalanilgan a'dabiyotlar:

- 1.A.Sagdullaev " O'zbekiston tarixi" Toshkent 2019
2. R.H.Murtazaeva "O'zbekiston tarixi": Toshkent. 2005
3. Q.Usmanov, M. Sodiqov, S.Burxanova. "O'zbekiston tarixi". - Toshkent: "IQTISOD MOLIYA", 2006.
- 4.Горбунова Н.Г. Фергана, по сведениям античных авторов. – В кн.: История и культура народов Средней Азии (Древность и средние века.) – М., 1976



5. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – М.- Л.1950